



## DARS TAHLILI VA PEDAGOGIK SALOHIYAT NEGEGIZI.

*Xomudjonova Feruza Komiljon qizi.*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedra mudiri, dotsent.*

*Ergasheva Zulayxo Sodiq qizi.*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Jismoniy madaniyat sirtqi ta'lim 2- bosqich talabasi.*

### **Annotatsiya.**

Dasr o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida biror maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Ya'ni o'qituvchi bilim salohiyatidan kelib chiqib dars o'tish uslubiyatlarini namoyon qiladi. Bu kabi iqtidor hamda kasbga bo'lgan ishonch pedagogik salohiyat hisoblanadi. Dars tahlili esa yuqorida keltirib o'tilgan so'zlarning shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Dars tahlili, jarayon, pedagog, metod, qo'llanma, malaka, dars, uslubiy jarayon, kuzatuv.

### **Kirish.**

Inson tug'ilibdiki, yashash bilan birlgilikda ma'lum darajada bilimlarni egallab boradi. Bu bilimlar yillar davomida sayqallanib kasbga yo'naltiriladi va o'zidan keyingi avlodga ba'zaviy ko'nikma sifatida shakllanadi. Shu o'rinda dars jarayonlari, o'zining ma'lum me'yoriy qonun qoidalari bilan birlgilikda insonni yetuk, komil bo'lib rivojlanishida asosiy dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamalakatimiz ta'lim tizimida yo'lga qo'yilgan turli chora tadbirlar, pedagoglarning o'z kasbini chuqr izlanishiga turtki bo'ldi.

### **Asosiy qism.**

Dars tahlili - o'quv jarayonini bir butun yaxlit xolda yoki izchil bo'laklarga bo'lib baholash hisoblanadi. Darsni tahlil qilishda, diqqatni faqat darsga qaratish lozim va jarayonda kechayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, yutuqlarini namuna qilish lozim hisoblanadi. Tahlil jarayoni doimo o'quvchilar bilan yuzaga keladigan salbiy oqibatlarga ijobjiy yechim topish, hamda pedagog sifatlarini namoyon qila oladigan kuzatuv jarayoni hisoblanadi. Tahlil darajasi har doyim o'quvchining kasbiy malakasini belgilaydi. Passov E. I „, Darsni qanday tahlil qilayotganingizni ko'rsating, men sizga qanday o'qituvchi ekanligingizni ko'rsataman" deya ta'kidlaydi. Bu jumla ham, tahlil qilish jarayoni qay tarzda o'tishi va uning natijasi o'qituvchining bilim malakasiga va ko'nikmasiga bog'liq ekanligini anglatadi. Tahlil jarayonidan kelib chiqqan natija xoh salbiy bo'lsin xoh ijobjiy bo'lsin, ammo vazifasi bir xil, o'qituvchini yanada shakllantirish hisoblanadi. Har qaysi o'qituvchi avvalo o'z o'zini tahlil qila olishi lozim. Qachonki pedagog o'z ustida ishlashdan qo'rmasa, o'zidagi kamchilikni





tan olib bartaraf etish yo'llarini izlar ekan, demak u o'z kasbining ustasi hisoblanadi. Dars o'tib bo'lib, pedagog o'zi o'tgan darsni o'yashi va miyyasida tahlil jarayonini boshlashi lozim. Boshqa o'qituvchilarning tahlil natijasidan ko'ra o'z o'zini natijasini tahlil orqali chiqara olgan pedagog salohiyatlari hisoblanadi. Sababi chetdan kuzatgan har kim o'qituvchiga tanqidli xato topa oladi, lekin o'z darsida o'zini tahlil qilgan o'qituvchi o'sha kamchilikda o'z o'zida anglay oladi. Bundan ko'rinish turibdiki boshqalar anglatgan xatoni tushunishdan ko'ra o'z o'zini xatosini topish va uni bartaraf etish ozroq murakkab. Shuning uchun ham o'qituvchi avvalo o'z o'zini tahlil qila olishi lozim.

Zamonaviy dars tahlili quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ilmiy tahlil.
- metodik tahlil.
- didaktik tahlil.
- umumpedagogik tahlil.
- umumpsixologik tahlil.

Ilmiy tahlil - berilayotgan bilimlarning ilmiy nazariy jihatni hisoblanib, ta'lum olqyotganlarning ko'proq mustaqil izlanishiga turtki bo'ladi.

Metodik tahlil - bunda pedagog darsda qo'llaydigan materiallari o'quvchilar diqqatini qay darajada torta olishi, bu metodlar uquvchilar bilimini yanada oshirishga qaratilganligi, turli tumanligi va ta'limning xususiyqlariga qarab tahlil qilinadi.

Didaktik tahlil - o'qituvchi tomonidan o'quv mashg'ulotlarini ta'lim ta'moyillariga amal qilgan holda olib borishi hisoblanadi.

Umumpedagogik tahlil - bunda o'quv mashg'uloti mazmunining ilmiy, metodik, didaktik jihatlari majmuaviyligi tushuniladi.

Umumpsixologik tahlil - bu tahlil o'quvchilar ruhiy holatini aniqlab, bu jihatni dars samaradorligiga yunaltirish hisoblanadi. Ya'ni o'qituvchi har bir bolaning individual xususiyatiga e'tibor berishi lozim. Bolaning psixologiya juda murakkab jarayon bo'lib, biz bilmasdan qilgan xatomiz ham ularda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ham pedagogdan faqat dars o'tish emas, darsni jihatlariga e'tibor berishi, bola psixologiyasiga yondashgan holda muomala qilishi tushuniladi.

Pedagogning qadimda bola yetaklovchi degan ma'noni anglatsa, hozirda kunda bolani yetaklash jarayonida unga turli yo'nalishda, turli uslublarda bilim berib boradi. O'quvchining bilim salohiyati qay darajada ortishi, o'qituvchining malakasiga va ko'nikmasiga bog'liq hisoblanadi. Pedagog zimmasidagi ma'suliyat nafaqat bola hayotini balki jamiat hayotini ham o'zgartirib yuborishi mumkin.

### Xulosा.

Dars tahlilining, dara o' tishning ma'lum qonun qoidalari mavjud, o'qituvchi esa bularning barchasini mujassamlashtirib berishi lozim. Dars tahlili jarayoni faqatgina





o'qituvchini oldinga harakat qilishiga undaydi. Shu sababli ham tahlil jarayoniga jiddiy yondashish lozim. Hozirgi kunda darsga qo'llash uchun turmi metodlar mavjud bo'lib, ularni qo'llashda yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarni tahlil jarayoni tuzatadi.

Pedagog kasbiy bilimidan kelib chiqib, o'z prinsiplariga yondashgan holda dars jarayonini tashkil qiladi. Shu sababli ham bu kasbni tanladimi, qiyinchiliklarga qaramasdan doyimo o'z ustida ishlashi, o'z - o'zini tahlil qilishi lozim. Pedagogik salohiyat negizi ham yuqorida keltirib o'tilgan so'zlar bilan mujassamlashgan hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1) Davronov E. I. Jo'rayev B. T. „Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi”.
- 2) Mirzayev I. „Dars tahlili”.
- 3) Sarsenbayeva R. M. „O'quv mashg'ulotlarini taxlil qilish metodikasi”
- 4) Umarov A. S. Raximov A. K „Dars sifatini tahlili - ta'lim taraqqiyotining mezoni.

